

O‘ZBEKISTONDA KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti Nukus filali Madaniyat va san’at muassasalari faoliyatni tashkil etish va boshqarish yonalishi 1 –kurs talabasi

Otabekova Hilola

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kunda yosh avlodni kitobxonlik madaniyatini oshirish va yuksaltirish, kitob o‘qishni targ‘ib qilish, kitob mutolaasi va uning foydalari haqida. Shuningdek, maqolada kitobxonning yosh toifalari va ular bilan qanday ishlash haqida ma’lumot keltirilgan.*

Аннотация: *Эта статья о воспитании и повышении читательской культуры молодого поколения сегодня, пропаганде чтения, чтении книг и его пользе. Также в статье дана информация о возрастных категориях читателя и способах работы с ними.*

Annotation: *This article is about educating and raising the reading culture of the younger generation today, promoting reading, reading books and its benefits. The article also provides information about the age categories of the reader and how to work with them.*

Kalit so‘zlar: *kitob, kitobxonlik, prezident, yosh kitobxon, tashabbus, kutubxona.*

Ключевые слова: *книг, чтение книг, президент, юный читатель, инициатива, библиотека.*

Key words: *book, book reading, president, young reader, initiative, library.*

Odamlar o‘qishdan to‘xtashlari bilan fikrlashdan ham to‘xtaydilar

Deni Didro

Bugungi kunda yurt boshimiz tomonidan yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash kitobxonlik savodini oshirish kitobga yoshlarni kitobga bo‘lgan mehrini kuchaytirish tobara ortib bormoqda. Kitob insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e’tiborga loyiq ko‘rinishidir. Kitoblarda kechmish zamonlarning aql idroki yashaydi; tuproqlari allaqachonlar to‘zg‘ib ketgan odamlarning ovozi burro va aniq yangrab turadi. Insoniyat yaratgan qayta-qayta o‘ylab ko‘rgan va u erishgan narsalarning bari xuddi sehri sandiqday kitoblar sahifasida saqlanib qolgan. Shunday ekan biz ko‘proq kitoblar o‘qishimiz, bilmagan narsalarimizni o‘rganishimiz va o‘z ustimizda tinimsiz va qattiq mehnat qilishimiz kerak.

Kitoblar insonlar hayotining ajralmas qismi bo‘lsagina ular o‘z maqsadlariga erisha oladilar. Kitob o‘qish inson dunyoqarashini o‘zgartiradi, shuningdek biz kitob o‘qish orqali atrofimizdagi olamni va undagi barcha muammo va dilxiraliklarni esdan chiqarib huzur topamiz. Darhaqiqat, kitob inson umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas

nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st hisoblanadi. Insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda kitob singari kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu boisdan azal-azaldan ma'rifat peshvolari ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan.

Kitob mutolaasi esa kishida chin insoniy fazilatlar shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topishida yordam beruvchi vositadir. Kitob bizdan o'rgatgan narsalari uchun hech narsa so'ramaydigan, qachon muhtoj bo'lsak bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan, biz qanday ahvolda bo'lsak ham bizga yordam beradigan be'minnat do'stdir. Faqat kitobgina bizga o'zida bor barcha narsalarni beradi evaziga esa hech narsa talab qilmaydi. Afsuski, shunday bo'lsada bugungi kunga kelib kitob o'quvchilar soni biroz pasayganday go'yo ko'pchilik internet olamiga sho'ng'ib ketgan, kitoblar qarovsiz qolayotganday. Yoshlarimizni mana shundan o'rgimchak to'ridan qutqarishning yagona yo'li bu badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishni kuchaytirishdir.¹⁷

Kitobxonlikni yuksaltirish maqsadida muhtaram prezidentimiz Shavkat Miramonovich Mirziyoyev tomonidan besh tashabbus loyihasi ilgari surilgan. Ushbu besh tashabbusning to'rtinchisi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgandir. Bundan tashqari "Yosh kitobxon" ko'rik tanlovi ham yoshlarni kitob o'qishga jalb qilmay qolmaydi. Sovrin uchun spark avtomashinasi esa yoshlarni kitobxonliklarini rag'batlantirishning eng to'g'ri yo'lidir. Bu har bir kitob o'quvchi insonga motivatsiya bo'ladi va bu tanlovni kuzatgan har bir o'quvchining kitob o'qishga ishtiyoqi yanada ortadi. Yana yurtimizda ko'plab kutubxonalar tashkil qilinmoqda u yerdan yoshlar o'zi xohlagan kitobini olib mutolaa qilishlari mumkin.

Muhammad Jabal Rudiy kitob haqida shunday deydi: "Ey aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan holi hamrohdur. Yolg'izlikda va g'amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor-u na gina. U shunday hamdardki so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topolmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilm-u hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham kitob aql qal'asidir". Yuqorida keltirilgan fikrlardan bilishimiz mumkinki, kitob mutolaasi o'sha paytlarda ham dolzarb masala bo'lib qolgan. Ulug' allomalarimiz ham kitob o'qishni targ'ib qilgan.

Kitob o'qigan inson atrofidagilarning har qanday yolg'on yashiq gaplariga aldanib ishonib ketavermaydi. Har bir masalada o'zi mushohada yuritadi, o'zining

¹⁷ Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.

shaxsiy fikri bo'ladi. Hamma jinoyatlar va qallobliklarning tub mazmuniga qaraydigan bo'lsak bular ilmsizlikdan kelib chiqqan bo'ladi. Kitob o'qib, ilm o'rganish erkak-u ayol uchun ham farz va ham qarzdir. Ayollarimiz kitob o'qishi katta e'tiborga molik masala, chunki kelajak avlodning tarbiyasi onalarimiz qo'lidadir. Ayolning o'zida bilim bo'lmasa kelajakda u bolalarini ham to'g'ri tarbiya qilolmaydi. Natijada bolalari ham savodsiz va tarbiyasiz bo'lib o'sishi hech gap emas. Shuning uchun avvalo ayollar o'qishi kerak. Albatta bola o'qishga qiziqtirish ko'p jihatdan uning otanasiga bog'liq.¹⁸

Ular bolasiga o'zining yoshiga mos kitob tanlay bilishlari kerak. Aks holda bola kitobni tushunmaydi va o'qishga bo'lgan qiziqishi ham so'nadi. Bolalar o'qishi pedagogikasida yoshiga qarab o'qishning o'sishi quyidagi bosqichlarga bo'linadi: bolalik 6-9 yosh; bolalikdan o'spirinlikka o'tish 10-11 yosh; o'spirinlik 12-13 yosh; o'spirinlikdan o'smirlikka o'tish 14 yosh hisoblanadi. Bu toifadagilarning yosh chegarasi harakatchan bo'ladi, ya'ni kitobxonning ijtimoiy-psixologik sharoitining shakllanishiga ko'ra 10 yoshli bolaning o'ziga xos tipologik xususiyatiga qarab o'spirin kitobxonlar toifasiga qo'shish, 14 yoshlilarni esa o'spirinlikka o'tayotgan kitobxon toifasi tabiatidagilar qatoriga qo'shish mumkin bo'ladi. O'qish bolaning ma'naviy hayotiga mustahkam kirib borishi uchun oldindan ta'sirchan-estetik tayyorgarlik ko'rish zarur.

Bunda kutubxonachining roli beqiyos, undan kitobxon va unga tavsiya etayotgan kitobini yaxshi bilishi talab etiladi. U kelayotgan kitobxonga yaxshi kitob tanlab bera olishi kerak. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka yetaklaydi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017-yil 13-sentabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi" to'g'risidagi qarori ijrosi yuzasidan joylarda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan bir necha chora tadbirlar bo'lib o'tdi. Shundan ham ko'rishimiz mumkinki, yoshlarni kitobxonlikka qiziqishini orttirish uchun yurtimizda ko'plab sa'y-harakatlar qilinmoqda.

Lekin har qaysi zamonda ham kitob o'qimaydiganlar bo'lgan. Faqat ular endilikda kompyuterga ruju qo'yishgan. Ammo soatlab telefonda gaplashish, sutkalab televizor oldidan jilmaslik, haftalab kompyuter o'yinlari bilan mashg'ul bo'lish intellektual salohiyatimizni yemirishini bugun vaqtning o'zi ko'rsatyapti. Biroq bu bilan internetni qoralashga haqqimiz yo'q, chunki internetdan ham turfa badiiy adabiyotlar, mutafakkir allomalarimizning asarlaridan foydalanishimiz, hatto hech

¹⁸ Mirdjalilova S., R.To'laganova "Ta'limda innovatsiya", "Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar" metodik tavsiyanoma, 2008 yil 26. Qodirova F.R., M.Fayzullayeva.

qaysi kutubxonadan yoki kitob do'konidan topa olmagan asarlarimizni topishimiz mumkin.

Bu albatta bizni internetdan qanday foydalanishimizga bog'liq. Internetni bir okeanga qiyoslasak bo'ladi uning ichida har xil chiqindilar ham dur-u gavharlar ham bor muhimi biz shu okean ichidan qay bir narsani olishimiz. Hozir 21 asr fan texnologiyalar asri biz bolalarimizdan telefonlarini yoki kompyuterlarini tortib olib bu muammolarni hal qila olmaymiz. Endilikda biz ularga internetdan foydalanish madaniyatini o'rgatishimiz kerak deb o'ylayman. Shu o'rinda ba'zi savollarga o'z fikrimni bildirib o'tsam.

1. Nega kitob o'qishga qunt qilmaymiz?

Buning sabablari turli xil bo'lishi mumkin. Masalan, biz to'g'ri ya'ni bizni qizqtira oladigan kitob tanlay olmasligimiz, ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, ozgina bo'lgan ma'lumotlarni o'qib o'rganib qolganimiz, atrofimizdagi insonlar.

- Inson o'ziga to'g'ri keladigan, uni qiziqitira oladigan kitobni tanlay olishi ham katta ahamiyatga ega.

- Atrofingizda kitob o'qiydigan kitobxonlar bo'lsa, ularga qiziqib ham kitob o'qishni boshlashingiz mumkin. Atrof-muhit va undagi insonlar bizga katta ta'sir ko'rsatadi. Biz ham atrofimizdagi odamlarga ergashamiz va ularga taqlid qilamiz. Shuning uchun ham bizning yaqinimizda kimlar bo'lishi o'ta muhim masala.

2. Bolalarga qanday qilib kitob o'qishni o'rgatish mumkin?

Bolani albatta kichikligidan kitob o'qishni, ilm olishni yaxshi ko'radigan qilib katta qilgan yaxshi. Ammo bolaga faqat "O'qi, o'rgan, yodla" deyish ham ketmaydi. Ya'ni bolani yana ham qiziqtirish uchun bola atrofida shuni ko'rishi kerak. Ya'ni kitob o'qiyotgan, ilm olayotgan insonlarni. Bola masalan boshqa bolada o'yinchoq ko'rib qolsa shuni istab qolishi mumkin, to'g'rimi? Atrofida ota-ona telefonga, buvi-bobosi televizorga qarab o'tirsa, boshqa bolalar ham telefondagi o'yinlarni o'ynab, yoki unda nimalarnidir ko'rayotgan bo'lsa, bunday muhitda bolaga kimdir turtki bo'lishi ham kerak.¹⁹

3. Kitob o'qishni qanday o'rgansa bo'ladi?

Biz ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, ozgina ma'lumotlarni o'qiyamiz. Shuning uchun ham katta kitoblarga qunt qilish oson bo'lmasligi mumkin. Kuniga ma'lum bir vaqtni belgilang yoki har kuni nechadir bet o'qiyman deb o'zingizga maqsad qo'ying. So'ng o'zingizni shu rejimga o'rgatishni boshlang. Boshida oson bo'lmasligi, kitob zerikarliday tuyulishi mumkin. Ammo bu ko'pincha o'rganib olguningizgacha davom etadi.

Bir so'z bilan aytganda bugungi kunda to'rtinchi tashabbus yoshlarni kitob atrofida birlashtira oldi. Kitoblar bilan birlashgan xalqning maqsadi aniq, borar manzili oydin bo'ladi. Mamlakatning ma'naviy darajasini ko'rsatadigan muhim ko'rsatkichlardan biri o'sha xalqning kitobxonligi, bugun qanday kitoblarni mutolaa

¹⁹ Pirmqul Qodirov "Ona lochin vidosi" Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2001.

qilayotganligi bilan belgilanadi. Shuning uchun hozirgi kunda xalqimiz orasida kitobxonlik madaniyatini oshirish, yoshlarni ommaviy kitobxonlikka jalb etish borasida davlat siyosati darajasida bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Chunki Prezidentimiz ham o'z nutqida ta'kidlaganidek, bugun kitob o'qiyotgan bola ertaga o'nta televizor ko'rayotgan bolalarni boshqarishi aniq. Buni O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan uch yildan buyon o'tkazib kelinayotgan "Yosh kitobxon" tanlovi orqali sezish qiyin emas. Bu tanlov yangi davrning "kitobxonlar avlodini" shakllantira oldi.

Kitobxonlik tanlovi yosh oilalar o'rtasida ham o'tkazilgani esa quvonarli hol. "Eng yaxshi kitobxon oila" tanlovi ilk marotaba Sirdaryoda bo'lib o'tdi. Unda yosh oila vakillari Prezident sovg'asi – "Spark" avtomashinasi sovrindori bo'lishdi. Albatta, insonning eng sof va eng pokiza tuyg'ular oila bag'rida shakllanadi. Axir o'sayotgan farzand tarbiyani qo'lida kitob ko'targan ota-onasidan o'rganadi. U ham ertaga televizor qarshisida emas, kitoblar qarshisida ilm olishga chog'lanadi. Kitob o'qigan oilaning ma'naviy havosi toza bo'ladi. Buyuklar, donolar ulg'ayadi bu xonadonda.

Kitoblar insoniyat fikri durdonalarini to'plab avlodlarga yetkazadi. Haqiqatdan ham, hech bir manba kitob kabi inson kamolotini yuksaltira olmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirdjalilova S., R.To'laganova "Ta'limda innovatsiya", "Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar" metodik tavsiyanoma, 2008 yil 26.
2. Qodirova F.R., M.Fayzullayeva.
2. Islom Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
3. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2013.
4. Pirmqul Qodirov "Ona lochin vidosi" Toshkent: "Sharq" nashriyoti, 2001.
5. Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2019.